

**Mohigul ASRONOVA,**  
 Andijon davlat universiteti dotsenti,  
 E-mail:mohigul.asronova@mail.ru  
 Tel:+998916040174

*Filologiya fanlar doktori, professor Sh.Shahobiddinova taqrizi asosida*

## DESCRIPTION OF MEDICAL DISCOURSE: APPROACHES AND CLASSIFICATIONS

Аннотация

Discourse means a broad understanding of the text, because it means not only the expression of a separate idea, but also a certain context, communication environment in which that idea is expressed. This context contains socio-cultural, historical and political factors. These factors ensure that communication occurs. In this article, it is explained that medical discourse is a special type of communication, which is unfamiliar to each other, according to the norms of a certain community and this public institution when necessary.

**Key words:** medical, discourse, genre, classification, terminology, linguistic and cultural, medical linguistics, medical metaphor.

## ОПИСАНИЕ МЕДИЦИНСКОГО ДИСКУРСА: ПОДХОДЫ И КЛАССИФИКАЦИИ

Аннотация

Дискурс означает широкое понимание текста, поскольку подразумевает не только выражение отдельной идеи, но и определенный контекст, среду общения, в которой эта идея выражается. Этот контекст содержит социокультурные, исторические и политические факторы. Эти факторы обеспечивают общение. В данной статье поясняется, что медицинский дискурс – это особый вид общения, незнакомый друг другу, по нормам определенного сообщества и данного общественного института при необходимости.

**Ключевые слова:** медицина, дискурс, жанр, классификация, терминология, лингвокультурология, медицинская лингвистика, медицинская метафора.

## TIBBIY DISKURS TAVSIFI: YONDASHUV VA TASNIFLAR

Аннотация

Diskurs matnga nisbatan keng tushunchani bildiradi, chunki u o'zida faqat alohida fikrni ifodalashni emas, balki o'sha fikr ifodalangan ma'lum bir kontekst, muloqot muhitini ham bildiradi. Mazkur kontekst o'zida ijtimoiy-madaniy, tarixiy va siyosiy omillarni saqlaydi. Bu omillar esa muloqotning yuzaga chiqishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada tibbiy diskurs bir-biriga notanish bo'lgan, zarurat tug'ilganda ma'lum bir jamoa va ushbu jamoatchilik muassasasi normalariga muvofiq muloqot, maxsus aloqa turi ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tibbiy, diskurs, janr, tasnif, terminologiya, lingvomadaniy, tibbiy lingvistika, tibbiy metafora.

**Kirish.** Diskurs – zamonaviy tilshunoslikning asosiy terminlaridan biridir. U odatda, mazmunan bir-birga aloqador bog'liq, yagona muloqot tizimini ifodalovchi matnlar to'plamini ifodalaydi. Diskursning og'zaki va yozma shakllari mavjud, shuningdek, u turli shakl va strukturaga ega bo'lishi mumkin. Diskursning asosiy maqsadi axborot uzatish, tinglovchi fikrni ifodalash yoki uni biror bir xabarga ishonitirishdan iborat.

Tibbiy diskurs – bir-biriga notanish bo'lgan, zarurat tug'ilganda ma'lum bir jamoa va ushbu jamoatchilik muassasasi normalariga muvofiq muloqot, maxsus aloqa turi. M.I.Barsukova tibbiy diskurs tadqiqiga dolzarb muammo sifatida qaraydi, chunki mazkur diskurs tibbiy yordamga ehtiyoj tug'ilgan kishilarga tibbiy yordam ko'rsatish, turli soha xodimlari bilan belgilangan professional o'zaro muloqot turi, deb hisoblaydi. G.Babaeva tibbiy diskursni quyidagicha ta'riflaydi: "Tibbiy diskurs tibbiy matn bo'lib, ko'pincha, kasallik, uning diagnostikasi, davolash, profilaktika haqida gapiradigan maxsus tibbiy nashrdir.

Tibbiy diskurs XX asrning 60-70-yillarida AQSH va Evropada fanning boshqa sohalariga qatorida o'rganila boshlandi. G'arbda tibbiy diskursni tahlil qilishning ikki yondashuvi farqlanadi. Birinchi yondashuvda AQShda sosiolingvistik nuqtai nazaridan klinik suhbatlarni tahlil qilish (mikroanalitik yondashuv), ikkinchi yondashuvda Evropada M.Fuko asarlarida ko'rsatilgan falsafiy fanlar yo'nalishi bilan bog'liq diskursiv tadqiqotlar alohida farqli yondashuvlar sifatida qaraladi. Ularda nutq shifokor vakolatini tasdiqlovchi, saqlovchi, manipulyasiya vositasi sifatida baholanadi (makroanalitik yondashuv). Mazkur ikki (falsafiy va sosiologik) yondashuvning asosiy muammosi tibbiy diskursda bemorga ta'sir qilish usullarini o'rganish, tibbiy nutqning ijtimoiy nazorat shakli sifatida ishlashini o'rganish bo'lgan.

Tibbiy ma'ruza maqsadi – tibbiyot olamidagi tajriba, mutaxassislarining tadqiqot ma'lumotlarini ochib berish. Ilmiy tibbiy ma'ruza tibbiy mutaxassis, amaliyotchi shifokor, tibbiyot xodimi, tibbiyot muassasalari talabalariga qaratilgan bo'ladi". Manbalarda tibbiy diskursning yozma va og'zaki usullari mavjudligi ta'kidlanadi. G.Babaevaning ta'rifning birinchi qismida ko'rinib turganidek, tadqiqotchi tibbiy diskursning faqat yozma ko'rinishini tavsiflaydi. "Tibbiy ma'ruza" deganda esa tibbiy diskursning og'zaki shaklini ham tan oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tibbiy diskursning xususiyatlarini tavsiflar ekan, M.I.Barsukova uni shunday tavsiflaydi: "Tibbiy diskurs har qanday nutqqa xos xususiyatlarga ega. Bunday belgilarga faollik, ochiqlik, informativlik, izchillik, yaxlitlik, tizimlilik, diskretlik kabilar kiradi".

G.Babaeva tibbiy diskurs ijtimoiy o'zaro ta'sir maydoni sifatida quyidagilarni qamrab olishini ko'rsatadi:

1) ko'plab nutq janrlarining yozma va og'zaki shakllari;

2) tibbiy idoralar yoki ommaviy axborot vositalarida shifokor va bemorning klinik uchrashuvlari (tibbiy forum va bloglar);

3) televideniya yoki tibbiy dasturlar, stasionar tibbiy yozuvlar, klinik konferensiyalardagi taqdimotlar va h.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotchining ko'rsatishicha, ilmiy va tibbiy diskursda uchta umumiy makro janr mavjud.

Bular:

1) ilmiy tadqiqot ishlari;

2) shifokorning bemor bilan suhbatlari;

3) darslik.

Bunday diskurs ishtirokchilari tibbiyot xodimlari yoki boshqa kasb egalari bo'lishi mumkin. Bunda tibbiy diskursning o'zi vertikal (shifokordan bemorga) yoki gorizontal (shifokordan shifokorga, olimdan olimga) amalga oshirilishi mumkin.

M.M. Van Naersen tibbiy muloqot jarayonining ikki asosiy turi va uning ichki guruhlarini farqlaydi.

#### ***Tibbiy diskurs janrlari (L.S.Beylison tasnifi)***

Xorij adabiyotida tibbiy diskursda tibbiy maslahatlar, matn va maslahatlarni to'g'ri yaratish bo'yicha maslahatlarni qamrab olgan ko'plab asarlar mavjud. Masalan, M.M.Van Naerssen tibbiy hujjatlar, uning turlari, yaratilish qoida va me'yorlari, funksiyalarini tavsiflagan. Bunda olim bemor va shifokor uchun asosiy hujjat sanalgan bemorning kasallik tarixiga alohida e'tibor qaratadi. Xuddi shu masala L.Vid, S.Reyser, E.Sigler kabi olimlar tadqiqotlarining ham ob'ektini tashkil etgan.

Turli tillarda tibbiy diskursning aspektlari tadqiqi bu sohada katta ilmiy tajribaning mavjudligini ko'rsatadi. I.S.Danilova, Yu.S.Danilova ingliz va fransuz tilidagi tibbiy terminlarning rus tiliga tarjimasida struktur-semantik xususiyatlarni o'rgangan bo'lsa, Pan Ke En, S.V.Shuripalar koreys tili tibbiy terminologiyasi misolida agglyutinativ tillarda termin shakllanishining struktur xususiyatlarini tadqiq etishgan.

I.V.Semenchuk, A.N.Tovstiko ingliz tili tibbiy terminologiyasida metafora (gastroenterologiya sohasi misolida) ni tavsiflaydi. O.V.Romashova bemorning tibbiy varaqasi misolida tibbiy hujjatlarining janriy-uslubiy xoslanishini tadqiq etgan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarda ob'ekt asosan tibbiy terminologiya va uning lingvistik xususiyatlari bo'lgan.

Ingliz tili tibbiy diskurs sohasida S.Poirer va D.Broner, J.Kaypes, P.Etkinson, J.Vils kabi xorijiy tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida natijalarini e'lon qilishgan. R.Enspech, H.Vaytskin, R.Charen, M.Grin va R.Adelmen, A.Vernerlar tibbiyot sosiologiyasi sohasida tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa, M.Gotti va F.Selejer-Meerlar yozma va og'zaki diskurs sohasida esa salmoqli ilmiy ishlarni amalga oshirishgan.

Shuningdek, rus tadqiqotchilari V.G.Borbotko, V.N.Babayan, S.L.Kruglova, M.L.Makarov, N.F.Alefirenko, L.M.Alekseeva va S.L.Mishlanova, E.P.Bogatikova, S.L.Mishlanova, A.A.Filippova, S.V.Mayborovalarning asarlarida mazkur masala tadqiq ob'ekti bo'lgan. M.I.Barsukova, L.S.Beylison, N.V.Goncharenkolar esa tibbiy diskurs bo'yicha maxsus tadqiqot olib borishgan.

N.V.Maysak, S.I.Madjaeva, N.Yu.Sidorova, V.V.Jura kabi olimlarning tadqiqot natijalari tibbiy diskursni lingvistik, nutqiy va kommunikativ amalga oshirish bilan bog'liq bir qator muammolarni: depersonalizasiya, standartlashtirish, deviativlik, ziddiyat va ushbu hodisalarga hissa qo'shadigan kommunikativ to'siqlar: ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning assimetriyasi, muloqotning hissiyligini aniqlash imkonini berganligi haqida fikr bildirganlar. O'zbek tilida xususiy diskursning lingvistik, lingvomadaniy, lingvopragmatik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, Sh.Safarov diskursning lingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, o'zbek tilida diskursiv markerlar (diskursning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi birliklar, L.Raupova dialogik diskursning sosiopragmatik xususiyatlari, G.Odilova xususiy diskurslarning lingvomadaniy talqinini o'rgangan.

O'zbek tilshunosligida tibbiy lingvistika bo'yicha bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan: N.G'aybullaeva tibbiy evfemizm, A.Qobilova tibbiy perifriza, D.Sobirova tibbiy reklamalarning sosiopragmatik xususiyatlarini monografik planda o'rgangan. "Tibbiy metaforalarning qisqacha izohli lug'ati" hamda "O'zbek tili tibbiy evfemizmlarining qisqacha izohli lug'ati" yaratilgan. Shuningdek, tibbiyot xodimlari nutqining sosiolingvistik xususiyatlari haqida ayrim fikrlar e'tiborga molik.

**Tahlil va natijalar.** G.L.Babaeva "Tibbiy diskurs" tushunchasi tahlili va tadqiqi masalasi" sarlavhali maqolasida shifokor va bemor o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonidagi kommunikativ kompetensiyani to'laqonli ochib berish bilan bir qatorda, tibbiy diskurs tushunchasini bir necha olimlarning fikriga ko'ra tahlil qilgan. Bunda tadqiqotchi tibbiy xodimlar nutqiga manipulyasiya vositasi sifatida qaraydi. G.L.Babaeva "Tibbiy xodimlarning tibbiy nutq malakasi tavsifi" maqolasida tibbiy ta'limda tibbiy diskursni tibbiy xodimga nutqiy ta'siri haqida so'z borgan, diskurs haqidagi tushunchalar bo'yicha ko'plab olimlarning qarashlarini tahlil qilingan. Tadqiqotchi "Tibbiy xodimning kichik yoshli bemorlar muloqotini psixolingvistik jihatdan tadqiq etish" sarlavhali maqolasida kichik yoshdagi kasal bolalar bilan tibbiy hodim o'rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan muammoli va og'riqli vaziyatlardagi holatlarda tibbiy hodimning kasb mahorati, nutq madaniyati hamda nafaqat kichik yoshdagi bemorlar bilan, balki ularning ota-onalari bilan ham muloqot ko'nikmasini shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritgan. Bu maqolada tadqiqotchi ko'proq shifokor nutq madaniyati, ya'ni deontologiyaga to'xtalgan. G.Babaeva kexsa yoshdagi bemorlar bilan suhbatlashish va bu suhbatning xususiyatlariga alohida to'xtalgan. Tadqiqotchining bu mavzudagi turkum maqolalaridan ko'rish mumkinki, u ko'proq deontologiya, uning turli yoshdagi, nutq ishtirokchilari turli ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan shaxslar nutqining o'ziga xosligini o'rgangan. Ammo tibbiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratmagan.

Tibbiy diskurs ishtirokchilari kasallik, shifokor va bemordir. Zero, Gippokrat "tibbiyot san'ati uch unsur kasallik, bemor va shifokordan iborat" deb ta'kidlagan. Kasallikni davolashning asosiy ishtirokchilari shifokor va bemordir, shuning uchun ularning ijobiy, to'g'ri, tizimli muloqoti natijasi terapiya (davolash jarayoni)ga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida turli olimlarning tibbiy diskurs tasnifiga yondashuvlarini keltirdik. Mazkur bobda tibbiy diskursni xususiy diskurs sifatida qarab, uning individualligini ta'minlovchi vositalarni o'rganish maqsad etib belgilangan. Shu sababli tibbiy diskursning individualligini ta'minlovchi vositalarni farqlash va shu diskurs doirasida umumlashtirish maqsadadi bu diskursda o'rganiladigan materiallarni uslubiga ko'ra tasniflashni ma'qul ko'rdik.

Materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida tibbiy diskursning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Tibbiy-ilmiy diskurs: diskursning bu turiga tibbiyotga oid ilmiy maqola, darslik, monografiya va maxsus tibbiyot ensiklopediyalari matni kiradi.
2. Tibbiy-professional diskurs: diskursning bu turiga tibbiyot xodimlarining o'zaro muloqot nutqi, tibbiy kongres va simpoziumlar, tibbiyot xodimlari orasida o'tadigan konsiliumlar og'zaki va yozma diskursi mansub.
3. Tibbiy-muloqot diskursi: diskursning bu turiga tibbiyot xodimlarining xalq bilan muloqoti, shifokor-bemorning o'zaro suhbatlari nutqi kiradi.
4. Tibbiy-publisistik diskurs: diskursning bu turiga tibbiyotga oid publisistik maqolalar ("Darakchi", "Bekajon" gazetalar matni), umumiy tibbiy ensiklopediya maqolalari sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi davra suhbatlari, teleko'rsatuvlar, tibbiyotga oid hujjatli filmlarning matni kiradi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Tibbiy diskursning mazkur turlarining leksikasi, jumladan, umumiste'mol va chegaralangan leksikasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tibbiy diskurs vositalarini tahlil qilish uchun yuqorida sanab o'tilgan soha materiallari ob'ekt sifatida tanlandi. O'zbek va ingliz tilida tibbiy diskursning individualligini aniqlash uchun matnlarni janri va uslubiga ko'ra tasniflash, ulardagi umumiylik va xususiylikni aniqlash yaxshi natija beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Barsukova M.S. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис. канд. филол. наук / М.И.Барсукова. – Саратов, 2007. – 21 б.
2. Babayeva G.L. “Tibbiy diskurs” tushunchasi tahlili va tadqiqi masalasi / Scientific aspects and trends in the field of scientific research: Vol. 1 No. 8 (2023). // <https://interonconf.org/index.php/pol/article/view/3118> (Murojaat sanasi: 26.02.2024)
3. Barsukova M.I. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис. канд. филол. наук [Текст] / М.И.Барсукова. – Саратов, 2007. – 21 с.
4. Dalinova I.S., Dalinova Y.S. Структурно-семантические особенности медицинских терминов в английском и французском языках и проблемы их перевода на русский язык (краткое сообщение) // Вестник новых медицинских технологий. Электронное издание. 2014. №1. URL: <http://www.medtsu.tula.ru/VNMT/Bulletin/E2014-1/5047.pdf> (дата обращения: 25.12.2023).
5. Babayeva G.L. “Tibbiy diskurs” tushunchasi tahlili va tadqiqi masalasi / Scientific aspects and trends in the field of scientific research: Vol. 1 No. 8 (2023). // <https://interonconf.org/index.php/pol/article/view/3118> (Murojaat sanasi: 26.02.2024)
6. Van Naerssen M.M. Medical Records: One Variation of Physician’s Language // International Journal of the Sociology of Language. 1985. № 51. – P. 43-73.
7. Gajda S. Podstawy badań stylistycznych nad językiem naukowym. Warszawa; Wrocław: Państwowe Wydawnictwo Naukowe, 1982. – 187 p.